

Oliy ta'lim tizimining

huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari

Boshqa sohalar kabi oliy ta'lim tizimida ham ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5847-farmoni muhim ahamiyatga egadir. Farmonda oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari, nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalari filiallarini tashkil etish kabi vazifalar belgilangan.

Davlat mablag'ining oliy ta'lim muassasalariga samarasiz sarflanishining oldini olish, universitet boshqaruvini bozor mexanizmlari orqali muvofiqlashtirish, universitetlarga ko'proq mustaqillik berish g'oyasi oliy ta'lim tizimlarining ichki va tashqi boshqaruvida quyidagi tendensiyalarni vujudga keltirgan:

- Ichki boshqaruvda oliy ta'lim asosan universitet professor-o'qituvchilari tomonidan boshqariladigan kollegial modeldan tashqi manfaatdor tomonlar tobora ko'proq ishtirok etuvchi korporativ modelga o'tishi;

- Tashqi boshqaruvda universitet ishlarida hukumatning bevosita nazorati qisqarishi va universitetlarning institutsional avtonomiyasi kuchayishi.

Biroq, mamlakatimizda oliy ta’lim muassasalari mustaqilligini ta’minlash, OTMlar boshqaruvida xalqaro standartlarni joriy etish, ularning faoliyatini baholashda muayyan muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda.

OTM mustaqilligini ta’minlashdagi muammolar

Ko‘plab xorijiy mamlakatlar oliy o‘quv yurtlariga tobora ko‘proq avtonomiya berib bormoqda. Oliy ta’lim va hukumat o‘rtasidagi ushbu yangi munosabatlarda davlat faqat tizim darajasida oliy ta’lim natijalarini nazorat qilish uchun vositachi sifatida ishlaydi.

Mamlakatimizda ham hukumatning oliy ta’lim muassasalari ustidan bevosita nazoratini “olib tashlash” tendensiyasi dunyoning ko‘plab mamlakatlarida sodir bo‘layotgan yuqori boshqaruv o‘zgarishlari bilan yaqinlashmoqda. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalarini bosqichma-bosqich o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazish to‘g‘risida”gi 2019-yil 3-dekabrdagi 967-qarori bilan 2020-yil 1-yanvardan boshlab, tajriba-sinov tariqasida o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tayotgan oliy ta’lim muassasalari ro‘yxati tasdiqlangan. Shuningdek, o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tayotgan oliy ta’lim muassasalari vasiylik kengashlari vakolatlari belgilangan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 61-qarori bilan esa 2022-yil 1-yanvardan boshlab O‘zbekistonda 35 ta OTM moliyaviy mustaqillik asosida faoliyat yuritishi belgilandi.

Qarorga ko‘ra moliyaviy mustaqil davlat OTMlari quyidagilar bo‘yicha mustaqil qaror qabul qiladi:

- kontrakt qiymatini hamda to‘lash muddatini belgilash va uzaytirish;
- mahalliy va xorijiy professor-o‘qituvchi va mutaxassislarni shartnoma asosida jalb qilish;
- o‘z hisobidan talabalar uchun stipendiya va grantlar ajratish;
- xorijiy o‘quv va ilmiy adabiyotlar, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarid qilish;
- bo‘sh turgan bino va inshootlarda pulli xizmatlar ko‘rsatish tartibini belgilash;
- avtotransportlarining yo‘l bosish yillik limiti va ularga xizmat ko‘rsatish talablarini belgilash.

Shuningdek, 2021-yil 24-dekabrda Prezidentning “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 60-qarori ham qabul qilindi. Ushbu qaror bilan moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta’lim muassasalariga akademik va tashkiliy-boshqaruv sohasida ham vakolatlar berildi.

Biroq mazkur o‘zgarishlar OTMlar faoliyatida mustaqillikni yetarli darajada ta’minlamaydi. Jumladan, OTMlarga mustaqillik berish g‘oyasi rivojlangan xorijiy davlatlarning tendensiyalaridan qisman farq qilmoqda. Buni quyida mamlakatimizda va Yevropa ittifoqi davlatlarida OTMlarga mustaqillik berish tizimini qiyosiy tahlil qilgan holda ko‘rish mumkin.

Birinchidan, Yevropa davlatlarida ijro etuvchi rahbar (rektor) universitet jamosidan iborat saylov guruhi yoki boshqaruv organlari tomonidan saylanadi yoxud universitet kengashi tomonidan tayinlanadi.

Prezidentning “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 60-qarori bilan moliyaviy mustaqillik berilgan davlat OTM rektori kuzatuv kengashi tomonidan lavozimga tayinlanishi va lavozimidan ozod etilishi belgilangan.

Lekin Yevropa davlatlarida kuzatuv kengashlari universitet boshqaruvida ishtirok etmaydi va ijro etuvchi rahbarni tayinlash va ozod etish vakolatiga ega emas.

Ikkinchidan, ko‘plab Yevropa davlatlarida ijro etuvchi rahbarga (rektor) qo‘yilgan talablar qonun darajasida belgilab qo‘yilgan. Jumladan, Belgiya, Germaniya, Daniya, Estoniya, Ispaniya, Finlandiya, Fransiya, Vengriya, Italiya, Litva, Lyuksemburg, Latviya, Polsha, Portugaliya, Serbiya, Shvetsiya kabi davlatlar shunday qonunchilikka ega.

Qonunchiligimizda rektorlarga muayyan talablar belgilab qo‘yilmagan. Faqatgina davlat va davlat ulushi mavjud bo‘lgan oliy ta’lim muassasasining rektori bo‘ysunuvi bo‘yicha tegishli vazirlik va idora rahbarining tavsiyasiga ko‘ra Prezident administratsiyasi bilan kelishilgan holda Vazirlar Mahkamasi tomo-

nidan lavozimga tayinlanishi va lavozimidan ozod etilishi nazarda tutilgan (Prezidentning 2019-yil 11-iyuldagi 4391-qarori).

Uchinchidan, OTMlarining avtonom tarzda obyektlarni sotib olishi, sotishi va qurishi ularning institutsional strategiyasi va akademik profilini aniqlash erkinligi bilan bog'liq. Shu sababli ko'plab Yevropa davlatlarida OTMlar o'z ko'chmas mulklariga nisbatan mulk huquqiga, shuningdek, ushbu mulklarni cheklovlarsiz sotish huquqiga ega.

Biroq ayrim davlatlarda OTMlar binolarni sotishi uchun hukumatdan ruxsat so'rashi, shuningdek, sotishdan olingan daromad universitetning asosiy faoliyatiga yo'naltirilishi kerak (Shveytsariya, Norvegiya, Sloveniya, Finlandiya, Fransiya kabi davlatlar).

Prezidentning 2021-yil 24-dekabrdagi "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 61-qarorida belgilangan tartib esa OTMlarga bunday huquqlarni bermaydi. Ya'ni ushbu qarorda moliyaviy mustaqillik berilayotgan davlat oliy ta'lim muassasalari asosiy vositalarni ijaraga berishdan tushgan mablag'ning 1 foizi – Davlat aktivlarini boshqarish agentligining hududiy bo'linmalari huzuridagi davlat mulki ijara markazlariga, qolgan qismi – elektron savdo maydonchasi operatoriga to'langan to'lov chegirilgandan keyin mazkur oliy ta'lim muassasasining budjetdan tashqari rivojlantirish jamg'armasiga yo'naltirilishi, asosiy vositalar va tovar-moddiy boyliklarni sotishdan tushgan mablag'lar to'lig'icha o'z ixtiyorida qoldirilishi, bundan yer, bino, inshootlar, jumladan, operativ boshqaruvga berilgan bino va inshootlar hamda o'quv-ilmiy laboratoriya jihozlari mustasno ekanligi belgilangan.

Mazkur qoidalar OTM o'z yer va binolariga nisbatan mulk huquqiga ega emasligini namoyon etadi.

To'rtinchidan, Yevropa davlatlarida xodimlarni ishga olish ularning akademik yoki ma'muriy xodim toifasiga qarab farqlanadi. Masalan, Yevropa ittifoqining 12 davlatida yuqori darajadagi akademik xodimlar mustaqil ravishda, 17 davlatda esa muayyan talablar (tashqi organlarning roziligini olish, lavozimlar sonidagi cheklovlar) asosida ishga qabul qilinadi. Yuqori darajadagi ma'muriy xodimlarni qabul qilishda Yevropa ittifoqining 18 davlati mustaqil, 10 davlati esa cheklovlar asosida ushbu vakolatga ega bo'lishi mumkin.

Shuningdek, mazkur davlatlarda yuqori darajadagi akademik yoki ma'muriy xodimlarni ishdan bo'shatish mehnat va davlat xizmatchisi maqomi bilan bog'liq bo'lgan qonunchilik bilan tartibga solinadi.

Prezidentning 2021-yil 24-dekabrdagi 60- va 61-qarorlariga ko'ra, endilikda moliyaviy mustaqillik berilayotgan davlat OTMlari ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llay oladigan va ilmiy izlanish olib boradigan mahalliy hamda xorijiy professor-o'qituvchi va mutaxassislarni shartnoma asosida jalb qilish, professor-o'qituvchilar shtat birliklarini kiritish me'yorlarini ishlab chiqish, pedagog va boshqa xodimlarni ishga qabul qilish, ishdan ozod etish va ichki rotatsiyasiga oid tartibni belgilash huquqiga ega hisoblanadi. Mazkur tartib OTMlarga xodimlarni yollashda va ozod etishda mustaqillikni ta'minlaydi.

Ammo Prezidentning 2019-yil 11-iyuldagi 4391-qarorida davlat va davlat ulushi mavjud bo'lgan oliy ta'lim muassasasining prorektorlari oliy ta'lim muassasasi rektorining tavsiyasiga asosan bo'ysunuvi bo'yicha tegishli vazirlik va idora rahbari tomonidan lavozimga tayinlanishi va lavozimidan ozod etilishi belgilangan. Bu norma qonunchilikda ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Beshinchidan, barcha oliy ta'lim tizimlarida OTMlarga o'qishga qabul qilish nomzodlardan o'rta ma'lumotga ega





bo‘lish yoki imtihondan muvaffaqiyatli o‘tishni talab qiladi. Yevropa ittifoqi davlatlarida qabul qilish mexanizmlari asosan universitet tomonidan belgilanadi.

Prezidentning 2021-yil 24-dekabrdagi 60-qarorida oliy ta’lim muassasasi qabul komissiyasi raisi va mas’ul kotibini, shuningdek, oliy ta’lim muassasasi tomonidan o‘tkaziladigan imtihonlar bo‘yicha qabul komissiyasi raisi va a’zolari, imtihonlar jadvali, imtihon olinadigan fanlar dasturlari va baholash mezonlarini tasdiqlash OTMlar vakolatlariga berilgan.

Respublikamizda OTMlarga test sinovlari orqali qabul qilish davlat tomonidan belgilab beriladi (Prezidentning 2019-yil 14-maydagi 4319-qarori, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-apreldagi 261-qarori).

Ammo talabalarni qabul qilish mezonlarini belgilash OTM vakolatlariga berilishi ularning mustaqilligini ta’minlashdagi muhim yo‘nalashlardan biridir.

OTMlarning boshqaruvida xalqaro standartlarni joriy etish

Bugungi kunda mamlakatimizda OTMlar faoliyatini boshqarish modeli sovet tizimidan qolgan tarixiy institutsional modeldir. Ya’ni OTMlar faoliyatini boshqarishda rektor “mutlaq” vakolatga ega, boshqaruvda kengashlar faoliyati deyarli sezilmaydi.


O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri tomonidan 2003-yil 9-yanvarda tasdiqlangan “Oliy ta’lim to‘g‘risida”gi nizomda oliy ta’lim muassasasiga bevosita rahbarlikni rektor amalga oshirishi, oliy ta’lim muassasasi faoliyati natijalari uchun rektor to‘liq javobgarligi belgilangan. Shunindek, ushbu nizomda rektorning umumiy vakolatlari nazarda tutilgan.















Rektor va kengashlar vakolatlarini OTMlarning ustavlari asosida o'zaro qiyoslash OTMlar boshqaruvida rektorlar "mutlaq" vakolatlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Jumladan, ular kengashlar ustidan ham nazoratni amalga oshiradi. Xorijiy davlatlarda OTMlar boshqaruvi aksiyadorlik jamiyatlari, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar boshqaruvi singari tashkil etilgan. Ya'ni OTM boshqaruvida kengashlar umumiy yig'ilish vakolatlarini amalga oshiradi, OTM faoliyatiga oid barcha muhim masalalarni ko'rib chiqadi va qarorlar qabul qiladi, rektorlar kengash qarorlarini ijro etuvchi hisoblanadi. Vasiylik kengashlari kuzatuv kengashi shaklida faoliyat yuritadi.

"Oliy ta'lim to'g'risida"gi nizomda oliy ta'lim muassasasi faoliyatining asosiy masalalarini ko'rib chiqish uchun ilmiy kengash (kengash) tashkil etilishi, shuningdek, uning tarkibi, vakolatlari, shakllantirish tartibi va faoliyati oliy ta'lim sohasidagi vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadigan namunaviy nizom bilan belgilanishi nazarda tutilgan.

Shuningdek, OTMlar faoliyatini tartibga soluvchi lokal hujjatlarda esa kengashlarning tashkil etilishi va vakolatlariga oid masalalar aks etgan. Ularda OTM faoliyatining asosiy masalalarini ko'rib chiqish uchun rektor (kengash raisi) boshqaradigan universitet kengashi tashkil etilishi belgilangan.

Shuningdek, nizomda kengash OTMning doimiy faoliyat yurituvchi kollegial organi hisoblanib, tashkiliy-boshqaruv, o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy-innovatsion, ma'naviy-ma'rifiy va moliya-xo'jalik faoliyatining asosiy masalalari bo'yicha kollegial qarorlar qabul qilishi, kengash tarkibi rektor tomonidan tasdiqlanishi, kengash tarkibiga prorektorlar, fakultet dekanlari, ilmiy kotib, kafedra mudirlari, ayrim tarkibiy bo'linmalar rahbarlari, yetakchi professor-o'qituvchilar va boshqa xodimlar kirishi nazarda tutilgan.

Biroq nizomda keltirilgan universitet kengashining vakolatlari "ramziy" xususiyatga ega va boshqaruvda qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etmaydi. Shuningdek, kengashga rektor raislik qilishi, kengash tarkibi rektor tomonidan tayinlanishi, uning tarkibida tashqi a'zolar soni va ularga qo'yilgan talablarning belgilanmaganligi kengashning universitet boshqaruvidagi ishtirokini cheklab qo'yadi.

Prezidentning 2021-yil 24-dekabrdagi 60-qarorida esa moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta'lim muassasalarida kuzatuv kengashlari tuzilishi va ularning asosiy vakolatlari belgilangan. Lekin kuzatuv kengashlariga berilgan vakolatlar xorijiy davlatlarda OTMlarining vasiylik kengashlaridan mustaqil, "an'anaviy" universitet kengashlariga tegishlidir.

Boshqaruv tuzilmalarining 2 ta asosiy turi mavjud: ikki tomonlama va unitar.

Ikki tomonlama boshqaruv tuzilmalari odatda kengash (board/council) va senatdan iborat. Vakolatlar kengash va senat o'rtasida aniq taqsimlangan bo'ladi. Senat asosan akademik masalalar uchun mas'ul bo'ladi. Boshqaruvning ushbu modeli Italiya, Buyuk Britaniya, Serbiya, Slovakiya, Sloveniya, Chexiya, Xorvatiya, Finlandiya, Vengriya, Niderlandiya va Lyuksemburgda amal qiladi.

Unitar boshqaruv modelida faqat bitta asosiy qaror qabul qiluvchi organ mavjud. Barcha muhim qarorlar uchun mas'ul bo'lgan bu organ senat, kengash yoki boshqa nom bilan atalishi mumkin. Estoniya, Latviya, Polsha, Belgiya, Irlandiya, Daniya, Islandiya, Norvegiya, Portugaliya va Shvetsiya kabi davlatlarda unitar model qabul qilingan.

Har ikkala modelda ham universitet kengashi OTMlar ichki va tashqi boshqaruvida muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, universitet kengashi universitetning boshqaruv organi sifatida universitetga tegishli barcha masalalar, jumladan, ma'muriyat va strategik rejalashtirish bo'yicha yakuniy qaror qabul qilish vakolatiga ega hamda uning ko'pchilik a'zolari odatda tashqi a'zolardan iborat bo'ladi.

Universitet kengashi asosan quyidagi vakolatlarga ega hisoblanadi:

- rahbar xodimlarni, shu jumladan rektorni lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod etish;
- universitetning missiyasini belgilash;
- strategik va moliyaviy rejalarni ishlab chiqish;
- boshqaruv jarayonlari va o'quv dasturlari sifati va samaradorligini nazorat qilish.

Rektorlar odatda lavozimi bo'yicha kengash a'zosi hisoblansada, universitet kengashi rektorni tayinlaganligi sababli rektor kengashga raislik qilish va ovoz berish huquqiga ega emas. Shunga ko'ra xorijiy davlatlar qonunchiligida universitet kengashi va rektorning vazifa va majburiyatlari aniq belgilangan. Universitet kengashi universitetning strategik masalalari va rejalarini muhokama qiladi va qaror chiqaradi, rektor esa uni amalga oshiradi.

OTMlar faoliyatini baholash tizimidagi kamchiliklar

Birinchidan, bugungi kunda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 467-qaroriga muvofiq “Oliy ta’lim muassasalari reytingini aniqlash tartibi to‘g‘risi”dagi nizom asosida oliy ta’lim muassasalari reytingi aniqlab kelinmoqda.

Ma’lumot uchun: quyidagi indikatorlar orqali oliy ta’lim muassalalari reytingi tuzilmoqda: professor-o‘qituvchilarning ilmiy faoliyati – **40** ball, o‘quv-metodik ishlar va o‘qitish sifati – **30** ball, talabalar bilimi va bitiruvchilar sifati – **27** ball, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish bo‘yicha faoliyati – **3** ball.

Biroq ushbu reyting tizimi indikatorlari xalqaro standartlar talablariga to‘liq javob bermaydi. Jumladan, O‘zbekistonda oliy ta’im muassalari reytingi ilg‘or xorijiy amaliyot asosida ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, unda kadrlar raqobatbardoshligi, bitiruvchilarga ehtiyoj darajasi, shuningdek, universitetdan qanday kadrlar yetishib chiqayotganligi, ularga bo‘lgan talabning ahamiyatiga e’tibor yetarlicha emas.

O‘tkazilgan so‘rov natijasida ma’lum bo‘lishicha, ish beruvchilarning oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilarining bilimi va malakasidan qanoatlanish darajasi past darajada qolmoqda. Misol uchun oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilarining bilimi va malakasi sifatidan firma rahbarlarining 33 foizi qanoatlangan bo‘lsa, 36 foizi norozi ekanligini bildirgan.

Shuningdek, bitiruvchilarning o‘z sohasi bo‘yicha ishlash ko‘rsatkichi sezilarli darajada pasaygan. Oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilarining ko‘pchilik qismi (turli mutaxassisliklar bo‘yicha 30–50 foizgacha) o‘z yo‘nalishi bo‘yicha ishlamayapti[1].

Xususan, milliy reyting tizimimizdan farqli ravishda, QS World University Rankings xalqaro reytingining dastlabki 2 indikatori (universitetning akademik va ish beruvchilar o‘rtasidagi obro‘si) akademiklar va ish beruvchilar o‘rtasida o‘tkaziladigan global so‘rovlarga asoslangan bo‘lib, institutlarning xalqaro obro‘sini baholaydi.

Shuningdek, QS World University Rankings universitetlarni baholashda asosiy omil sifatida bandlikni o‘z ichiga olgan yagona reyting hisoblanadi. 2021-yilda QS World University Rankings dunyo bo‘ylab ish beruvchilarning 50 000 ga yaqin so‘roviga asoslangan holda universitetlar reytingini baholagan[2].

Ma’lumot uchun: QS (Quacquarelli Symonds World University Rankings) 2004-yildan buyon dunyo bo‘ylab talabalarga mustaqil, obyektiv va ma’lumotlarga asoslangan eng yaxshi universitetni tanlashda yordam berish uchun Jahon universitetlari reytingini tuzib keladi. QS metodologiyasi to‘rtta keng toifaga qaraydigan oltita ko‘rsatkichdan iborat: tadqiqot obro‘si, o‘quv va o‘qitish muhiti, tadqiqot ta’siri va ta’limni xalqarolashtirish.

Ikkinchidan, oliy ta’lim muassasalari faoliyatini baholashda xususiy baholash tashkilotlari faoliyati yo‘lga qo‘yilmagan.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan oliy ta’lim muassasalari faoliyati baholanadi. Xalqaro amaliyotda OTMlar reytingi dav-

[1] Oliy ta’lim muammolari: taqqos va statistika (kun.uz).
[2] https://www.topuniversities.com/qs-world-university-rankings/methodology.

lat tashkilotlaridan tashqari, bir qator mustaqil va xususiy baholash tashkilotlari tomonidan ham aniqlanadi.

JUMLADAN,

Oliy ta’lim sifatini ta’minlash agentligi (QAA – Quality Assurance Agency for Higher Education) Buyuk Britaniya oliy ta’lim muassasalarida oliy ta’lim standartlari va sifatini tekshiradigan mustaqil baholovchi organdir.

Ushbu tashkilotni moliyalashtirish manbalariga universitetlar va kollejlarning a’zolik obunalari, moliyalashtiruvchi organlar va hukumat bilan tuzilgan shartnomalar asosida to‘lanadigan mablag‘lar va boshqa manbalar kiradi[3].

Mazkur xususiy tashkilotlarning afzallik jihati shundaki, ular ta’lim sifatini baholashda shaffoflikni yuqori darajada ta’minlaydi, har bir baholash ko‘rsatkichini tashqi ekspertlarni jalb qilgan holda aniqlaydi, shuningdek, o‘zini-o‘zini moliyalashtiradi.

Uchinchidan, milliy oliy ta’lim muassasalari reytingini tuzishning OTMlar faoliyati samaradorligiga ta’siri sezilmayapti.



Ma’lumot uchun: 2021-yilning reyting natijalariga ko‘ra, birinchi beshtalikni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti, O‘zbekiston milliy universiteti, Toshkent tibbiyot akademiyasi, Samarqand davlat universiteti va Toshkent moliya instituti egallagan.

Eng quyi pog‘onalardan Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti, Navoiy davlat pedagogika instituti hamda Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti joy olgan.

Lekin mazkur reyting natijasi yuqori o‘rinlarni egallagan oliy ta’lim muassasalariga muayyan ustunlik va afzalliklarni kafolatlamaydi. Bundan tashqari, reyting natijalariga ko‘ra quyi o‘rinlarda turuvchi oliy ta’lim muassasalariga past ko‘rsatkich qayd etilganligi yuzasidan choralar mavjud emas. Bunday rag‘batlantirish va jazo choralari qonunchilikda, jumladan, “Oliy ta’lim muassasalari reytingini aniqlash tartibi to‘g‘risi”dagi nizomda ham belgilanmagan.

Qayd etish kerakki, reyting natijalarini tuzish va uni e’lon qilish faqatgina oliy ta’lim muassasalari qanday pog‘onalarni egallashini ko‘rsatmasdan, OTMlar uchun huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarishi va faoliyati samadorligini oshirishga xizmat qilishi lozim.

Xorijiy davlatlarda reyting natijalariga qarab OTMlarni rag‘batlantirish yoki ularga nisbatan chora ko‘rishning huquqiy asoslari mustahkamlangan. Jumladan, Buyuk Britaniya xususiy baholash tashkiloti bo‘lgan QAA reyting natijalari asosida oliy ta’lim muassasalariga ilmiy darajalar va universitet unvoni beriladi.

OTM faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik tahlili

Bugungi kunda mamlakatimizda oliy ta’lim muassasalari faoliyati 140 ga yaqin qonunchilik hujjati bilan tartibga solinadi. Jumladan, Prezidentning 28 ta qarori, Vazirlar Mahkamasining 72 ta qarori va 40 ga yaqin idoraviy normativ-huquqiy hujjat mavjud. Biroq sohani tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar soning ko‘pligi turli huquqni qo‘llash amaliyotini keltirib chiqarmoqda va oliy ta’lim sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishga to‘sqinlik qilmoqda.

Masalan, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri tomonidan 2003-yil 9-yanvarda tasdiqlangan “Oliy ta’lim to‘g‘risida”gi nizom umumiy qoidalar bilan cheklangan va bugungi kun talablariga mos emas.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning 11-moddasida va qisman boshqa moddalarda belgilangan oliy ta’limga oid qoidalar oliy ta’lim faoliyatining barcha jihatlarini qamrab olmaydi.

Shuningdek, OTMlarga akademik mustaqillik va institutsional avtonomiya berish tendensiyasi OTM faoliyatini bevosita tartibga soluvchi qonun qabul qilish zaruriyatini ko‘rsatadi. Sababi endilikda OTM faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish, boshqaruv organlarining huquq va majburiyatlari, oliy ta’lim faoliyati ustidan davlat nazorati yo‘nalishlari, oliy o‘quv yurti va talabalar munosabati yagona hujjatda va qonun darajasida belgilanishi lozim.

Xorijiy davlatlarda OTM faoliyati “Oliy ta’lim to‘g‘risida”gi qonunlar bilan maxsus tartibga solinadi. Xususan, Chexiya, Xi-

[3] https://eacea.ec.europa.eu/national-policies/eurydice/france/quality-assurance-higher-education_en.

toy Estoniya, Litva, Polsha, Gruziya kabi davlatlarda “Oliy ta’lim to‘g‘risida”gi qonunlar mavjud.

Turkiyaning “Oliy ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni 11 bo‘lim, 65 moddadan iborat bo‘lib, qonunning maqsadi va tartibga solish sohasi, umumiy qoidalar, oliy ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish, moliyalashtirish, boshqaruv organlari, oliy ta’lim institutlari (universitet organlari, fakultet organlari kabilar), akademik, o‘quv-yordamchi va ma’muriy-xo‘jalik xodimlari faoliyati, talabalar, jazo choralari kabi munosabatlarni tartibga solgan[4].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, oliy ta’lim tizimini takomillashtirish maqsadida quyidagilarni taklif etamiz:

OTMlarning mustaqilligi sohasida:

- rektorni OTM kengashi (kuzatuv kengashi emas) tomonidan tayinlash va lavozimidan ozod etish;
- rektor lavozimiga tayinlash uchun muayyan talablarni belgilash;
- OTMlarning mulk huquqlarini ta’minlash, jumladan, moliyaviy mustaqillik berilayotgan davlat oliy ta’lim muassasalariga asosiy vositalarni ijaraga berishdan tushgan mablag‘larini mustaqil sarflash huquqini berish;
- OTMlarning mustaqil ravishda kadrlarni yollash va ishdan bo‘shatishga oid huquqlarini ta’minlash maqsadida prorektorlarni tayinlash va lavozimidan ozod etishga oid amaldagi tartibni bekor qilish;
- OTMga qabul qilish bo‘yicha barcha vakolatlarni OTMlarga berish.

OTMlar faoliyatini baholash sohasida:

- milliy reyting indikatorlarini shakllantirishda kadrlar raqobatbardoshligi, bitiruvchilarga ehtiyoj darajasi, shuningdek, universitetdan qanday kadrlar yetishib chiqayotganligi, ularga bo‘lgan talabni inobatga olish;
- oliy ta’lim muassasalarini baholashda xususiy baholash tashkilotlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish;
- milliy oliy ta’lim muassasalari reytingini tuzishning OTMlar faoliyati samaradorligiga ta’sirini oshirish, jumladan, reyting natijasiga ko‘ra yuqori o‘rinlarni egallagan oliy ta’lim muassasalariga muayyan ustunlik va afzalliklarni kafolatlash, shuningdek, quyi o‘rinlarda turuvchi oliy ta’lim muassasalariga past ko‘rsatkich qayd etilganligi yuzasidan choralar qo‘llash.

OTM faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik sohasida:

- oliy ta’lim faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarini xatlovdan o‘tkazish;
- OTM faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish, boshqaruv organlarining huquq va majburiyatlari, oliy ta’lim faoliyati ustidan davlat nazorati yo‘nalishlari, oliy o‘quv yurti va talabalar munosabatini tartibga soluvchi “Oliy ta’lim to‘g‘risida”gi qonunni ishlab chiqish va qabul qilish;
- o‘z ahamiyatini yo‘qotgan amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni bekor qilish.

Adiba SAFAROVA,
Adliya vazirligi huzuridagi
Huquqiy siyosat tadqiqot instituti mas’ul xodimi

[4] https://www.yok.gov.tr/Documents/Yayinlar/Yayinlarimiz/the-law-on-higher-education.pdf.